Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	



HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI

Hafizov Abdulla Olimjonovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: abdullakhafizov92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining tarixiy va madaniy meros obyektlarida yashil (green) va barqaror turizm konsepsiyasini joriy etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqlim o'zgarishi, ekologik yuklama va meros obyektlarining degradatsiyasi sharoitida hududiy turizm siyosatida eko-yo'naltirilgan boshqaruv zarurati asoslanadi. Buxoro UNESCO meros hududi sifatida resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini kamaytirish, chiqindilarni boshqarish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks yondashuvni talab etishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda yashil turizmni samarali joriy etishda integratsiyalashgan modelning ahamiyati isbotlanib, u yashil infratuzilma, raqamli turizm texnologiyalari, mahalliy aholi ishtiroki va ekologik boshqaruvni bir butun tizim sifatida ko'radi.

Kalit so'zlar: yashil turizm, barqaror turizm, UNESCO merosi, yashil infratuzilma, jamoaga asoslangan turizm (CBT), raqamli turizm texnologiyalari, qo'shma boshqaruv.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of implementing the concept of green and sustainable tourism in the historical and cultural heritage sites of the Bukhara region. The study substantiates the necessity of eco-oriented governance in regional tourism policy under conditions of climate change, increasing environmental pressure, and degradation of heritage sites. As a UNESCO World Heritage area, Bukhara requires an integrated approach focused on rational resource use, carbon footprint reduction, waste management, and improvement of energy efficiency. The research demonstrates the importance of an integrated model for effective implementation of green tourism, viewing green infrastructure, digital tourism technologies, local community participation, and environmental governance as a unified and interconnected system.

Key words: green tourism, sustainable tourism, UNESCO heritage, green infrastructure, community-based tourism (CBT), digital tourism technologies, co-management.

Аннотация. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining tarixiy va madaniy meros obyektlarida yashil (green) va barqaror turizm konsepsiyasini joriy etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqlim o'zgarishi, ekologik yuklama va meros obyektlarining degradatsiyasi sharoitida hududiy turizm siyosatida eko-yo'naltirilgan boshqaruv zarurati asoslanadi. Buxoro UNESCO meros hududi sifatida resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini kamaytirish, chiqindilarni boshqarish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks yondashuvni talab etishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda yashil turizmni samarali joriy etishda integratsiyalashgan modelning ahamiyati isbotlanib, u yashil infratuzilma, raqamli turizm texnologiyalari, mahalliy aholi ishtiroki va ekologik boshqaruvni bir butun tizim sifatida ko'radi.

Ключевые слова: yashil turizm, barqaror turizm, UNESCO merosi, yashil infratuzilma, jamoaga asoslangan turizm (CBT), raqamli turizm texnologiyalari, qo'shma boshqaruv.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon turizmida yashil (green) va barqaror turizm konsepsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, ekologik yuklamaning ortishi hamda tarixiy-madaniy meros obyektlarining saqlanishiga bo'lgan ehtiyoj hududiy turizm siyosatida innovatsion va ekologik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Buxoro viloyati o'zining boy tabiiy-resurs salohiyati, noyob tarixiy-madaniy merosi va rivojlangan ziyorat turizmi imkoniyatlari bilan yashil turizmni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi.

Buxoro shahri va uning atrofidagi tarixiy markazlarning UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgani hududda eko-yo'naltirilgan boshqaruv, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror turizm modellarini izchil joriy etish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi. Bugungi kunda Buxoroda tabiiy va madaniy resurslarni



asrash va ularning qiymatini oshirishga qaratilgan turizm faoliyatini rivojlantirish borasida muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, kam uglerodli (low-carbon) transport va yashil infratuzilmadan foydalanishni kengaytirish, mahalliy aholi bandligi va daromadlarini oshirish orqali inklyuziv rivojlanishni ta'minlash, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida resurslarni monitoring qilish va boshqarish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan, yashil turizm turizm multiplikatorining oshishiga xizmat qiladi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi hamda ekologik xarajatlarni optimallashtirish orqali uzoq muddatli va barqaror daromad manbalarini shakllantiradi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy meros hududlarida turizmni rivojlantirish alohida e'tibor va puxta rejalashtirishni talab etadi. Chunki turistik oqimlarning ortishi infratuzilmani modernizatsiya qilish, chiqindilarni samarali boshqarish, transport harakatini tartibga solish, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarni dolzarb qiladi. Ushbu jihatlarda e'tiborga olingan holda tashkil etilgan yashil turizm modeli meros obyektlarining uzoq muddatli saqlanishi va sayyohlik tajribasining yuqori sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, meros obyektlarida turizmni "yashil" tamoyillar asosida tashkil etish nafaqat ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, balki madaniy merosni muhofaza qilish va destinatsiya brendini barqaror rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi Buxoro viloyatining tarixiy va madaniy meros obyektlarida yashil turizm konsepsiyasini joriy etishning imkoniyatlari, mavjud muammolari va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Buxoroda yashil turizmni rivojlantirish zaruratini ekologik va iqtisodiy omillar kesimida asoslash; yashil turizm infratuzilmasining asosiy komponentlari (transport, energiya, chiqindi, suv ta'minoti va monitoring) bo'yicha imkoniyatlar va rivojlanish yo'nalishlarini tizimlashtirish; SWOT tahlil asosida hududning ichki va tashqi omillarini baholash; mahalliy aholi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni konseptual bloklar asosida ishlab chiqish.

MAVZYGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror turizm ilmiy adabiyotlarda 1990-yillardan boshlab mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida jadal rivojlana boshladi. Xususan, Bramwell va Lane barqaror turizmni global miqyosda "rivojlanish – muhofaza – boshqaruv" o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab etuvchi yondashuv sifatida talqin qilib, ushbu konsepsiyaning nazariy poydevorini shakllantirdilar. Ularning qarashlarida turizm nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki tabiiy va madaniy resurslarni uzoq muddatli saqlash mexanizmi sifatida qaraladi.

Hunter esa barqaror turizmni "moslashuvchan paradigma" sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, barqarorlik yagona qat'iy model emas, balki destinatsiyaning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlariga mos ravishda turli daraja va vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan dinamik jarayondir. Ushbu yondashuv barqaror turizm konsepsiyasini amaliyotga moslashuvchan tatbiq etish imkonini kengaytiradi.

Siyosat va amaliy boshqaruv nuqtai nazaridan, UNEP va UNWTO barqaror turizmni ko'p manfaatdor tomonli (multi-stakeholder) tizim sifatida boshqarish zarurligini asoslab beradi. Ularning konseptual hujjatlarida davlat organlari, xususiy sektor, mahalliy hamjamiyat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik barqaror turizm maqsadlariga erishishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, barqarorlik tamoyillarini siyosiy instrumentlar, strategiyalar va normativ-huquqiy mexanizmlar orqali joriy etish yo'llari batafsil izohlanadi.

Yashil turizmni samarali joriy etishning muhim sharti uning natijalarini o'lchash va monitoring qilish hisoblanadi. UNWTO tomonidan ishlab chiqilgan destinatsiyalar uchun indikatorlar qo'llanmasida suv resurslari, chiqindilarni boshqarish, energiya iste'moli, transport, ijtimoiy ta'sir va boshqaruv kabi yo'nalishlar bo'yicha indikatorlarni tanlash va bosqichma-bosqich joriy etish metodologiyasi bayon etilgan. Shu bilan birga, Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ETIS (European Tourism Indicator System) tizimi destinatsiyalar uchun amaliy jihatdan qulay, "oddiy joriy etiladigan" indikatorlar to'plamini taklif etib, turizm samaradorligini barqarorlik mezonlari bilan uyg'un holda baholash imkonini kuchaytiradi. Mazkur maqolada Buxoro sharoitida energiya, chiqindi, suv va transport ko'rsatkichlarini tahlil qilishda aynan ushbu indikator-logik yondashuvdan foydalanildi.

Mahalliy aholi ishtiroki yashil turizmning institutsional tayanchi sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Murphy turizmni "jamoaga asoslangan yondashuv" doirasida tahlil qilib, mahalliy hamjamiyatning rejalashtirish va boshqaruv jarayonlaridagi faol ishtiroki turizmning ijtimoiy barqarorligini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv yashil turizmni hudud aholisi manfaatlarini bilan uyg'unlashtirish, ijtimoiy kapitalni mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola Buxoro viloyatining tarixiy-madaniy meros obyektlarida yashil (green) va barqaror turizm konsepsiyasini joriy etish holatini kompleks baholash hamda uning ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy




asoslashga qaratilgan. Tadqiqot dizayni aralash (mixed-methods) yondashuvga asoslanib, unda miqdoriy va sifat tahlil usullari uyg'un holda qo'llanildi. Xususan, ikkilamchi statistik ma'lumotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlili, indikatorlarga asoslangan baholash hamda SWOT tahlil metodlari integratsiyalashgan holda amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish hamda ushbu obyektlarda yashil turizm konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Xususan, hududda 140 dan ortiq tarixiy-madaniy obidalar joylashgan bo'lib, ular turistik resurslar xilma-xilligini ta'minlaydi. Shuningdek, cho'l va yarim cho'l landshaftlarining mavjudligi eko-marshrutlar va tabiatga yo'naltirilgan turizm turlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Buxoro viloyatida ziyorat va ma'naviy turizm obyektlarining boshqa hududlarga nisbatan ko'pligi, milliy hunarmandchilik va gastronomiya klasterlarini kengaytirish imkoniyatlari esa hududning turistik raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Ayni paytda, mavjud salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun turizm infratuzilmasini yashil tamoyillar asosida modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Jumladan, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini kengaytirish, yashil transport turlaridan (elektrobuslar, veloyo'laklar) foydalanish ulushini bosqichma-bosqich ko'paytirish, shuningdek, raqamli turizm xizmatlari (smart-guide tizimlari, karbon monitoring vositalari)ni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Buxoroda yashil va barqaror turizmni samarali joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi.



1- rasm. Buxoro viloyatidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarida yashil turizm sanoatining SWOT tahlili ¹

Alohida ta'kidlash joizki, Buxoro viloyatida yashil turizmni rivojlantirishda integratsiyalashgan modelni qo'llash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu model yashil infratuzilmani shakllantirish, yashil transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli turizm texnologiyalarini joriy etish hamda mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirishni yagona tizim sifatida qamrab oladi. Integratsiyalashgan yondashuv turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Yashil infratuzilmani rivojlantirish doirasida, avvalo, turizm obyektlari va mehmonxonalarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Jumladan, quyosh panellari, suvni tejavchi texnologiyalar va energiya samarador uskunalaridan foydalanish turizm obyektlarining ekologik izini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayniqsa tarixiy va madaniy meros obyektlari atrofida chiqindilarni saralash va qayta ishlash punktlarini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali hududning ekologik holatini yaxshilash imkoniyati mavjud.

Yashil transport tizimini rivojlantirish doirasida elektrobuslar va velomarshrutlar tarmog'ini kengaytirish, piyoda va ekologik marshrutlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy va madaniy meros obyektlari atrofida transport harakatini cheklash yoki tartibga solish esa ushbu hududlarning saqlanishi va turistik tajribaning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli yashil turizm texnologiyalarini joriy etish, xususan QR-kodli smart-guide tizimlari, raqamli navigatsiya va turistlarning karbon izi (carbon footprint) monitoringi mexanizmlarini rivojlantirish turizm boshqaruvini zamonaviy va shaffof qilish imkonini beradi.

¹ Ilmiy manbaalar asosida muallif ishlanmasi



Yashil turizm modelining yana bir muhim tarkibiy qismi – mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash va inklyuzivlikni kuchaytirish hisoblanadi. Tarixiy va madaniy meros obyektlari atrofida oilaviy mehmon uylari (eco-guesthouse) tashkil etish, hunarmandchilik va agro-turizm klasterlarini rivojlantirish orqali mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbalarini yaratish mumkin. Ushbu integratsiyalashgan model to'liq joriy etilganda, turizm daromadlari o'rtacha yiliga 8-12 foizga oshishi, 2030-yilgacha yashil loyihalar orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratilishi, ekologik yuklama va chiqindilar hajmi 15-20 foizga qisqarishi hamda hududning xalqaro turizm reytinglaridagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortishi kutiladi.

Buxoro viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil turizmni hududiy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish ekologik muvozanatni saqlash bilan bir qatorda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning samarali mexanizmi hisoblanadi. Tarixiy va madaniy meros obyektlarida turizm faoliyatini ekologik mas'uliyat, resurslardan tejamkor foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda tabiiy va madaniy merosni asrash tamoyillari asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Mahalliy aholi ishtiroki turizmning qiymat zanjirida – rejalashtirish, xizmat ko'rsatish va monitoring bosqichlarida jamoa va xonadonlarning bevosita qatnashuvi, manfaatdorligi hamda daromad ulushiga ega bo'lishini anglatadi. Xalqaro tajriba, jumladan, Kosta Rika, Germaniya va Shvetsariya amaliyotlari shuni ko'rsatadiki, mahalliy aholi ishtiroki odatda uch darajada amalga oshiriladi. Birinchi darajada aholining axborotli ishtiroki ta'minlanadi, ya'ni jamoa ekologik tashabbuslar va rejalaridan xabardor qilinadi. Ikkinchi darajada maslahatlashuv mexanizmi qo'llanilib, muhim qarorlar qabul qilish jarayonida aholi fikri inobatga olinadi. Eng yuqori darajada esa co-management tizimi joriy etilib, bunda qarorlar birgalikda ishlab chiqiladi, resurslar muvozanatli taqsimlanadi va foyda jamoa bilan hamkorlikda boshqariladi.

Tarixiy va madaniy meros obyektlarida mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish strategiyalari odatda bir qator nazariy yondashuvlarga tayangan holda asoslanadi. Xususan, barqaror rivojlanish yondashuvi turizm samaradorligini ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar uyg'unligi orqali baholaydi. Jamoaga asoslangan turizm (Community-Based Tourism – CBT) yondashuvi esa turizm markazida destinatsiya emas, balki jamoaning o'zi turishini ta'kidlaydi. Manfaatdor tomonlar nazariyasi mahalliy aholini asosiy manfaatdor subyekt sifatida ko'rib, iqtisodiy manfaatlar, ekologik talablar va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini asoslaydi. Ijtimoiy kapital nazariyasi jamoa ichidagi ishonch, hamkorlik va norasmiy tarmoqlarning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Institutsional nazariya esa mahalliy ishtirokni huquqiy me'yorlar, litsenziyalash, sertifikatlash va eko-standartlar orqali mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil turizmni rivojlantirish jarayonida mahalliy aholi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan strategiyalar mazmunan turli yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu strategiyalarni tizimli o'rganish maqsadida ularni besh asosiy blokka ajratish maqsadga muvofiq bo'lib, bu yondashuv mahalliy ishtirokning institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.



2-rasm. Tarixiy va madaniy meros obyektlarida mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish strategiyalari

Mazkur strategiyalar mahalliy aholining turizm jarayonlarida faqat ijrochi emas, balki qaror qabul qilishda ham faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan. Nazariy jihatdan bunday yondashuv qo'shma boshqaruv (co-management) tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyil doirasida davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoa o'rtasida vakolatlar hamda mas'uliyatlarning muvozanatli taqsimoti shakllantiriladi, bu esa boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.



Jamoaviy turizm kollektivlari yoki mahalliy kengashlarning tashkil etilishi hududiy turizm tashabbuslarini “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, destinatsiya boshqaruvi tizimlarida (DMS) mahalliy aholi vakillari uchun kvotalar ajratilishi ularning manfaatlarini institutsional darajada himoya qilishga xizmat qiladi. Turizm daromadlarining shaffof va adolatli taqsimlanishini belgilovchi qoidalar jamoa ishonchini mustahkamlab, mahalliy aholining uzoq muddatli va barqaror ishtirokini rag‘batlantiradi.


Mahalliy ishtirokning barqarorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy manfaatdorlik bilan belgilanadi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari alohida strategik blok sifatida qaraladi. Mikroreditlar, subsidiyalar va grantlar mahalliy aholining kichik hajmdagi yashil turizm tashabbuslarini amalga oshirishiga qulay sharoit yaratadi. Ekologik sertifikatlangan subyektlarga taqdim etiladigan soliq va moliyaviy imtiyozlar esa yashil standartlarga rioya qilishni iqtisodiy jihatdan maqbul qiladi. Kooperativlar orqali “birgalikda biznes” yuritish resurslardan samarali foydalanish va risklarni taqsimlash imkonini beradi. Mahalliy xarid (local procurement) talablarining joriy etilishi esa turizm daromadlarining hududdan tashqariga chiqib ketishini cheklab, mahalliy iqtisodiy multiplikator ta’sirini kuchaytiradi.

Yashil turizm mahalliy ishtirokning samaradorligi aholining bilim va ko‘nikmalariga bevosita bog‘liq. Shu bois inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Eko-gidlik, servis va mehmondo‘stlik yo‘nalishlari bo‘yicha treninglar mahalliy aholining professional salohiyatini oshirib, turistik xizmatlar sifatini yaxshilaydi. “Train-the-trainer” modeli asosida mahalliy trenerlarni tayyorlash bilim va ko‘nikmalarining hudud ichida barqaror tarqalishini ta’minlaydi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan dasturlar yashil turizmning ijtimoiy inklyuzivligini kuchaytirib, hududlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Mahalliy aholining ekologik ong darajasi yashil turizmning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Ekologik ta’lim va targ‘ibot tadbirlari aholining tabiat va madaniy merosga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantiradi. Chiqindilarni saralash va qayta ishlashga oid kundalik amaliyotlarning joriy etilishi turizm faoliyatining ekologik ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. “Mas’uliyatli turist xulq-atvori” konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda olib boriladigan ishlar mahalliy aholi va turistlar o‘rtasida ekologik mas’uliyatni bo‘lishishga xizmat qiladi. Tabiiy va tarixiy obyektlarni asrashga oid jamoaviy qoidalar esa norasmiy, biroq samarali ijtimoiy nazorat mexanizmini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar mahalliy aholining turizm bozoriga integratsiyalashuvida muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Mahalliy xizmatlarni onlayn platformalarga joylashtirish, raqamli bronlash va elektron to‘lov tizimlarini joriy etish bozorga kirish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. QR-guide va smart-map kabi raqamli vositalar mahalliy bilimlar va madaniy kontentni turistlarga yetkazishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Hududiy brend va storytelling yondashuvlari esa mahalliy identitetni mustahkamlab, destinatsiyaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Nazariy jihatdan mahalliy ishtirokni kengaytirish uch asosiy omilning bir vaqtda ta’minlanishini talab etadi. Birinchidan, imkoniyat – ya’ni bilim, ko‘nikma va resurslarning mavjudligi; ikkinchidan, motivatsiya – iqtisodiy daromad, ijtimoiy tan olinishi va foydaning adolatli taqsimlanishi; uchinchidan esa sharoit – qulay huquqiy muhit, samarali institutlar, infratuzilma va bozorga kirish imkoniyatlari. Ushbu omillardan birortasining yetishmasligi mahalliy ishtirokni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarning umumiy samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli IMS (Imkoniyat–Motivatsiya–Sharoit) modeli yashil turizm siyosatini ishlab chiqishda muhim konseptual asos sifatida qaraladi.



3-rasm. Tarixiy va madaniy meros obyektlarida mahalliy aholining ishtirokini kengaytirishning asosiy omillari

Mahalliy aholi ishtiroki yashil turizmning institutsional tayanchi bo‘lib, hududiy destinatsiyalarning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Jamoaga asoslangan turizm va manfaatdor tomonlar yondashuvlarining qo‘llanilishi turizm daromadlarining hudud ichida qolish ulushini oshiradi hamda ekologik yuklamani muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Institutsional to‘siqlarni qisqartirish mahalliy aholining



turizm qiymat zanjiriga integratsiyasini jadallashtiradi. Inson kapitalini rivojlantirish va raqamli platformalashuv mahalliy subyektlarning bozorga chiqish xarajatlarini kamaytirib, ularning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Ekologik madaniyat va jamoaviy boshqaruvning uyg'unlashuvi sharoitida yashil turizm vaqtinchalik tashabbus emas, balki uzoq muddatli barqaror tizim sifatida shakllanadi.

Hududlar turizm sanoatini yashil turizm tamoyillari asosida rivojlantirish zamonaviy barqaror rivojlanish talablariga to'liq mos bo'lib, iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy inklyuziyani yagona tizimda ta'minlashga xizmat qiladi. Olib borilgan nazariy va tahliliy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yashil turizmni muvaffaqiyatli joriy etish mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish hamda raqamli va innovatsion yechimlarni keng joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, mahalliy aholi ishtirokining kengaytirilishi yashil turizmning institutsional va ijtimoiy poydevori sifatida namoyon bo'lib, turizm daromadlarining hududda qolishini oshiradi, bandlikni kengaytiradi va ekologik yuklamaning kamayishiga xizmat qiladi. Institutsional-boshqaruv, iqtisodiy rag'batlantirish, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda raqamli integratsiya strategiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi yashil turizmni qisqa muddatli tashabbusdan uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeliga aylantiradi.

Buxoro viloyati misolida olib borilgan umumlashtirishlar shuni ko'rsatadiki, yashil turizm hududiy rivojlanishning muhim drayveri bo'lib, tarixiy-madaniy merosni asrash, ekologik muvozanatni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan samarali strategik yo'nalish hisoblanadi. Mazkur xulosalar yashil turizmni hududiy rivojlanish siyosatiga integratsiya qilishning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab, dissertatsiya va fundamental tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Buxoro viloyatida tarixiy-madaniy meros obyektlari negizida yashil (green) va barqaror turizmni rivojlantirish masalasini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini berdi. Olib borilgan nazariy va empirik umumlashtirishlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro UNESCO merosi maqomiga ega destinatsiya sifatida turizmning iqtisodiy o'sishini resurslardan oqilona foydalanish, ekologik yuklamani boshqarish hamda tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash talablari bilan uyg'un holda rivojlantirishi lozim.

Hududning yuqori turistik jozibadorligi, ziyorat turizmi, milliy hunarmandchilik va gastronomik salohiyati yashil turizmni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bilan birga, ushbu salohiyatdan samarali foydalanish jarayonini rejalashtirilgan va boshqariladigan mexanizmlar orqali yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan integratsiyalashgan va ekologik yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvi meros obyektlarining uzoq muddatli saqlanishini ta'minlab, ekologik xavflarni minimallashtirish va turizm rivojini barqaror yo'nalishda davom ettirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bramwell B. & Lane B. (1993). Sustainable tourism: An evolving global approach. *Journal of sustainable tourism*, 1(1), 1-5.
2. Hunter C. (1997). Sustainable tourism as an adaptive paradigm. *Annals of tourism research*, 24(4), 850.
3. Ihnatenko M., Romaniuk, I. & Yatsenko Y. (2021). Support of projects and strategies for the development of rural green tourism enterprises by local communities and the state. *University Economic Bulletin*, (51), 7.
4. WTO. (2004). Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations A Guidebook (English version). World Tourism Organization.
5. Murphy P. (2013). *Tourism: A community approach* (RLE Tourism). Routledge.
6. Kurpayanidi K.I. (2021). Financial and economic mechanism and its role in the development of entrepreneurship. *Theoretical & Applied Science*, (1), 1.
7. Weeden C. (2013). *Responsible tourist behaviour*. Routledge.
8. Plotnikova M. (2018). Green tourism development in smart communities. *Baltic Journal of Economic Studies*, 4(3), 203.
9. Risfandini A. (2024). Sustainable tourism implementation in Indonesia: Emphasizing green tourism, community-based tourism, and local empowerment. *Barista: Jurnal Kajian Bahasa Dan Pariwisata*, 11(01), 58.
10. Andari R. & Setiyorini H.P.D. (2016). Green tourism role in creating sustainable urban tourism. *South East Asia Journal of Contemporary*, 9(1), 27.
11. Sakun A., Kyrilov Y., Hranovska V., Kolokolchikova I., Nikitenko K. & Katsemir Y. (2020). Regional Diversification of Rural Territories with Limited Spatial Location of Green Tourism Objects.
12. Nepomnyashchyy O., Yekimov S., Rybalchenko N., Tebenko V. & Lysak O. (2022, May). The impact of green tourism on the development of the regional economy. In *International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry "Interagromash"* Cham: Springer International Publishing.
13. Talukder M. (2025). Exploring the intersections of tourism with urban and regional planning: strategies for sustainable development and community integration. *Acta Scientiarum Polonorum Administratio Locorum*, 24(2), 285.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
